

# **O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI**

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**SENTYABR, 2025-YIL**



**KONFERENSIYALAR .COM**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI**

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

**TOSHKENT-2025**

**ISBN 978-9910-09-297-8**

**O'ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI.** VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 69 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 8-sentyabr

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lism istiqbollari" nomli VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarini birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lism, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

**ISBN 978-9910-09-297-8**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

*Normatov Yodgor, Baxodirov Zafar, Tursunov Shodmon*

MAPPING TYPICAL IRRIGATED SEROZEM SOILS BASED ON SLOPE LEVEL INDICATORS  
USING GIS TECHNOLOGIES ..... 5-8

### TARIX FANLARI

*Xusanov Ximmat*

BUYUK BRITANIYA PROTEKTORATI – MISR BIRINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA ..... 9-11

*Kholmatov Shukurillo*

ANALYSIS OF RESEARCH ON THE HISTORY OF THE ARAB CALIPHATE OCCUPATION OF  
CENTRAL ASIA (BASED ON ENGLISH-LANGUAGE RESEARCH)..... 12-17

### IQTISODIYOT FANLARI

*Ergasheva Parizoda*

IMPLEMENTATION CHALLENGES OF FINANCIAL INFORMATION SYSTEMS IN DEVELOPING  
COUNTRIES ..... 18-26

*Yuldashev Baxtiyor*

MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA ERKIN IQTISODIY  
ZONALARNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH ..... 27-30

### FILOLOGIYA FANLARI

*Zokirova Shaxzoda*

TELEVIDENIYE – JAMOAT MULOQOTI MAYDONI SIFATIDA: RITORIK TAHLIL ..... 31-33

### YURIDIK FANLARI

*Qayumberdiyeva Dildora*

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA MEDIATSIYA TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIKNI  
TAKOMILLASHTIRISH ..... 34-38

### PEDAGOGIKA FANLARI

*G'aniyev Shaxzod*

TARIX O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA RAQAMLI METODIK QO'LLANMALARNI ISHLAB  
CHIQISH VA SINOV DAN O'TKAZISH ..... 39-44

*Ahmedova Nargiza, Maxmudov Dilshod*

SUN'YIY INTELLEKT VA TA'LIM INTEGRATSIYASI: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR ..... 45-48

*Khazratova Zukhra*

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PROMOTING AUTONOMY LEARNING ..... 49-51

*Kumush Xamrakulova*

OILA VA MAKTAB INTEGRATSIYASI ORQALI O'QUVCHILARDA MUSTAQIL TA'LIM  
KO'NIKMALARINI RIVOJLANТИRISH ..... 52-57

## **TIBBIYOT FANLARI**

*Nurmamatova Nigina*

DEMENSIYA PROFILAKTIKASIDA ZAMONAVIY PSIXOTERAPEVTIK YONDASHUVLAR VA  
INNOVATSION TERAPIYA IMKONIYATLARI: O'ZBEKİSTON SOĞ'LIQNI SAQLASH TİZİMİDA  
İSTİQBOLLAR ..... 58-60

*Temirova Umidaixon*

НОВЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ДИСМЕНОРЭЮ: ОБЛЕГЧЕНИЕ БОЛИ ПУТЕМ ЗАКРЫТИЯ  
ДЕФИЦИТОВ ОРГАНИЗМА ..... 61-63

*Solijonova Asalbonu*

ATOPIK DERMATIT TARIXI VA OZIQ-OVQAT ALLERGIYASI BILAN BOĞ'LIQLIGI ..... 64-68

## FILOLOGIYA FANLARI

### TELEVIDENIYE – JAMOAT MULOQOTI MAYDONI SIFATIDA: RITORIK TAHLIL

**Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi**

O'zDJTU "Ingliz tilini o'qitish metodikasi № 2" kafedrasi o'qituvchisi

Email: [shnzokirova@mail.ru](mailto:shnzokirova@mail.ru)

Tel: +998 99 828 33 71

Toshkent, O'zbekiston

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqotda televizion nutq madaniy fenomen sifatida qaralib, uning ritorik xususiyatlari hamda polikodoviy xususiyatlari ilmiy tahlil doirasida o'rganiladi, shu bilan birga verbal va vizual ifodalash vositalari uyg'unligi zamonaviy ritorikadagi maqomi nuqtai nazaridan izohlanadi. Televizion diskursning ritorik tuzilishi turli janrlardagi muloqot shakllari orqali namoyon bo'lib, uning ta'sirchanlik darajasi nafaqat auditoriyaning qabul qilish xususiyatlariga, balki ijtimoiy-madaniy kontekstga ham chambarchas bog'liq ekanligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** televizion nutq, ritorika, polikodoviy diskurs, verbal va vizual vositalar, auditoriya, ta'sirchanlik, media tilshunosligi, jamoatchilik muloqoti, zamonaviy jurnalistika.

### TELEVISION AS A SPHERE OF PUBLIC COMMUNICATION: A RHETORICAL ANALYSIS

**Zokirova Shakhzoda Nodirjon qizi**

Teacher, Department of English Teaching Methodology № 2, Uzbek State World Languages University

**Annotation.** This study examines television speech as a cultural phenomenon, focusing on its rhetorical characteristics and polycode features within the framework of scientific analysis. At the same time, the interaction of verbal and visual means of expression is explained from the standpoint of their status in modern rhetoric. The rhetorical structure of television discourse manifests itself through various forms of communication across genres, and its degree of persuasiveness is emphasized as being closely connected not only to the audience's perceptive abilities but also to the socio-cultural context.

**Key words:** television speech, rhetoric, polycode discourse, verbal and visual means, audience, persuasiveness, media linguistics, public communication, modern journalism.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab televideniye insoniyatning eng ta'sirchan ommaviy kommunikatsiya vositasi sifatida shakllandi va jamiyat muloqoti maydonida asosiy o'rinnegalladi. Televideniye orqali nafaqat axborot tarqatildi, balki butun boshli ijtimoiy munosabatlar, siyosiy qarashlar, ma'naviy qadriyatlar va madaniy tendensiyalar ham ifodalanib, keng auditoriyaga yetkazila boshladi. Bu jarayonda televideniye ritorikaning zamonaviy yo'nalishlari uchun muhim maydon sifatida namoyon bo'ldi, zero televideniyedagi nutq hamisha ko'p qatlamlı, ko'p qirrali va multimodal xususiyatga ega bo'lib, u verbal va vizual kodlarning uyg'unligida shakllanadi.

Ritorika nazariyasida televideniye nafaqat axborotni yetkazuvchi vosita, balki o'ziga xos jamoat muloqoti sahnasi sifatida o'rganiladi. M.M. Baxtin ta'kidlaganidek, "har qanday nutq muloqot jarayonidagi dialogik munosabatlar bilan belgilanadi" [1; 126-b.]. Demak, televideniye

orqali yaratilgan har qanday ritorik matn hamisha dialogik xususiyat kasb etadi: bir tomonda jurnalist, boshlovchi yoki siyosiy arbob, ikkinchi tomonda esa keng jamoatchilik. Bu o'zaro ta'sir televideniyeda muloqotni jamoat muloqoti sifatida o'rganish imkonini yaratadi.

Bugungi kunda televideniye orqali jamoat muloqoti turli janrlarda namoyon bo'ladi. Axborot dasturlari, tok-shoular, siyosiy chiqishlar va hujjatli ko'rsatuvar televideniye ritorikasining asosiy ko'rinishlaridir. Masalan, siyosiy chiqishlarda etos, patos va logosning uyg'un qo'llanilishi yaqqol ko'rindi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning nutqlari buning yorqin misoli bo'lib, etos – uning davlat rahbari sifatidagi rasmiy maqomi va ishonchli uslubida, patos – yoshlar, milliy g'urur va kelajak haqidagi hissiy murojaatlarda, logos esa – islohotlar dasturi va raqamlarga asoslangan dalillarda o'z ifodasini topadi. Masalan, Prezidentning "Yoshlar – bizning kelajagimiz, ular uchun barcha imkoniyatlarni yaratishimiz shart" degan murojaati patosning ta'sirchan namunasidir, chunki bu tinglovchida iftixor va mas'uliyat tuyg'usini uyg'otadi.

Televideniyeda axborot dasturlari ham alohida o'ringa ega. Ular ko'pincha qisqa gaplar, standart ifoda vositalari, klische va rasmiy shtamplardan iborat bo'lib, shu bilan birga zamonaviy ritorikaning polikodoviy xususiyatlarini namoyon etadi. N.S. Gegelova fikricha, "televizion nutq madaniy hodisa sifatida jamiyat muloqotining turli qirralarini aks ettiradi" [2; 91-b.]. Axborot dasturlari orqali yetkaziladigan xabarlarda so'z, tasvir va intonatsiya uyg'unligi muxim ahamiyat kasb etadi. Masalan, BBC yoki CNN axborot dasturlaridagi qisqa, aniq va ta'sirchan jumlalar jurnalistik ritorikaning universal me'yori sifatida qabul qilingan.

Tok-shoular esa televideniyeda muloqotning interaktiv shaklini ifodalaydi. Bu yerda boshlovchi, mehmon va auditoriya o'rtasida faol muloqot kechadi. I.N. Kemarskaya qayd etganidek, "televizion nutqning polikodoviy tabiatи aynan tok-shoulardan jonli namoyon bo'ladi, chunki verbal ifoda vizual ishoralar, jest va intonatsiyalar bilan uyg'unlashadi" [4; 132-b.]. Masalan, amerikalik tok-shou boshlovchilari — Opra Uinfri yoki Larri Kingning chiqishlarida qaytarish (repetition), savol-javob, dramatizatsiya kabi ritorik usullar keng qo'llaniladi. O'zbekiston televidenyesida ham tok-shoular orqali ijtimoiy masalalar muhokama qilinadi, bu esa jamoat muloqotining demokratik ruhini kuchaytiradi.

Ritorika nazariyasining asosiy kategoriyalari — etos, patos va logos televideniye uchun ham moslashtirilgan holda ishlaydi. Etos televideniyeda jurnalist yoki siyosiy arbobning shaxsiy obro'si, uning nutq uslubi va auditoriyada uyg'otgan ishonchi orqali ifodalanadi. Patos his-tuyg'ularga ta'sir qilish, drama yaratish va auditoriyada emotsiyal reaksiya uyg'otish orqali namoyon bo'ladi. Masalan, 2020 yil pandemiyasi vaqtida yangiliklar dasturlarida shifokorlar haqidagi videolavhalar va boshlovchilarning ta'sirchan intonatsiyasi patosning jonli namunasi bo'ldi. Logos esa dalillar, raqamlar, tahlillar va aniq struktura orqali namoyon bo'ladi. Masalan, Euronews yoki BBC World Service kabi telekanallarda statistik ma'lumotlar bilan boyitilgan tahliliy chiqishlar auditoriyada ishonch uyg'otishga xizmat qiladi.

Televideniye ritorikasida vizual omillar alohida ahamiyatga ega. Yu.M. Lotman ta'kidlaganidek, "tasvir madaniyatning semiotik tizimi sifatida nutqni yangi ma'no qatlamlari bilan boyitadi" [6; 66-b.]. Televizion chiqishlarda orqa fondagi ramzlar, bayroqlar, zaldagi auditorianing qiyofasi yoki ishtirokchilarning jest va mimikalari ham ritorik ta'sir kuchini oshiradi. Masalan, AQSH prezidentlarining murojaatlarda bayroqlar va milliy ramzlar orqali

etos mustahkamlansa, o'zbek tok-shoularda milliy liboslar va urf-odatlarni aks ettiruvchi detallar orqali patos kuchayadi.

Zarur hollarda televide niye ritorikasi tanqidiy tahlilni ham o'z ichiga oladi. K. Jemison fikricha, "ommaviy siyosiy nutqda ritorik usullardan noto'g'ri foydalanish manipulyatsiya va aldovga olib kelishi mumkin" [3; 56-b.]. Shu bois televide niyedagi chiqishlar faqatgina axborot yetkazish emas, balki mas'uliyatli muloqot shakli sifatida baholanishi zarur.

Shu nuqtai nazardan, televide niye ritorikasi zamonaviy jamoat muloqotida bir qancha vazifalarni bajaradi: axborot berish, ishontirish, ko'ngilochar vazifa va tarbiyaviy ta'sir. Uning zamonaviy ahamiyati shundaki, televide niye orqali jamoatchilik nafaqat voqealar haqida ma'lumot oladi, balki ularni muayyan tarzda qabul qilishga ham yo'naltiriladi. M.V. Krasavina bu haqda shunday yozadi: "televizion diskurs ritorikaning zamonaviy qirralarini aks ettirib, jamiyatning ijtimoiy va madaniy ehtiyojlariga mos ravishda qayta shakllanadi" [5; 92-b.].

Televide niyeda axborot dasturlari va tok-shou larining ritorik tahlili ularning jamoat muloqoti sifatidagi o'rmini ochib berish imkonini beradi. Axborot dasturlari ko'proq logosga asoslansa, tok-shoularda patos va etosning kuchli ta'siri ko'rinadi. Siyosiy chiqishlarda esa ushbu uchlik uyg'un tarzda qo'llaniladi. Shu jihatdan televide niye zamonaviy ritorikaning eng ta'sirchan amaliy maydoni sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, televide niye ritorikasi jamoat muloqoti tizimining ajralmas qismiga aylangan. U nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi, milliy g'oya va qadriyatlarni targ'ib qiluvchi, jamiyatni birlashtiruvchi kuch sifatida ahamiyat kasb etadi. Axborot dasturlari, tok-shou lar va siyosiy chiqishlar orqali televide niye ritorikasi zamonaviy jamoat muloqotining barcha qirralarini qamrab oladi va uning ta'sirchanligi multimodal xususiyati bilan belgilanadi.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Bakhtin M. M. The dialogic imagination. – Austin: University of Texas Press, 1986. – P.126.
2. Гегелова Н. С. Телевизионная речь как явление культуры // Вестник РУДН. Серия: Литературоведение. Журналистика. – 2009. – №2. – С.91.
3. Jamieson K. H. Dirty politics: deception, distraction, and democracy. – Oxford: Oxford University Press, 1992. – P.56.
4. Кемарская И. Н. Телевизионная речь: поликодовый характер вербальных включений // Вестник ВГИК. – 2010. – №1(2). – С.132.
5. Красавина М. В. Риторика телевизионного дискурса. – Москва, 2018. – P.92.
6. Lotman Yu. M. Universe of the mind: a semiotic theory of culture. – Bloomington: Indiana University Press, 1990. – P.66.

# O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 8-sentyabr

**Mas'ul muharrir:**

*F.T.Isanova*

**Texnik muharrir:**

*N.Bahodirova*

**Diszayner:**

*I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 69 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 8-sentyabr

**ISBN 978-9910-09-297-8**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.